UNDERSTANDING EUPHEMISMS FROM LINGUISTIC ASPECT

EVFEMIZMLARNING TILSHUNOSLIK SATHIDA IFODALANISHI

Maftuna Abduvoitova*

* **Guliston davlat universiteti (O‘zbekiston)**

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy asarlardagi qo‘llanilgan evfemizmlar таҳлил этилган. Shuningdek, til unsurlaridan foydalana olish mahorati ham batafsil yoritib берилган. Zero, y mohir so‘z san’atkori sifatida o‘z ijodida til va ma’naviyat, madaniyat mushtarakligining uyg‘un holdagi ko‘rinishlarini namoyon qilib, o‘zbek ma’naviyati, milliy ibo, nazokat va andishani go‘zal va dilbar tilimizda ifoda etish mahoratini namoyish etdi.

Kalit so‘zlar. tabu, evemizm, badiiy so‘z, tilshunoslik, til birliklari, Botir firqa, Oymomo, olqish, qarg‘ish.

Har bir qalam ahlining til unsurlaridan foydalana olish mahorati o‘ziga xosdir. Ijodkorning til imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalana olishi asnosida bashariyatga xos bo‘lgan yuksak odamiylikni talqin qilib va bu orqali o‘z ijod mahsulining umrboqiyligini, asrlar osha yashab qolishini ta’minlagan bo‘ladi

Tog‘ay Murodning so‘z qo‘llash mahorati haqida o‘z zamondoshlari va keyingi avlod adabiyotshunoslari tomonidan munosib fikrlar bildirilgan. Biroq til badiiy tafakkur mahsuli ifodalovchisi ekan, adib ijodining ulug‘vorligini ta’minlovchi asosiy vositalardan biri sifatida uning til imkoniyatlaridan foydalanish mahoratini chuqur va atroflicha o‘rganish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, adibning individual nutqiga atroflicha baho berish, idiolekti lug‘atini tuzish, qo‘llangan til birliklarining statistik tavsifini berish amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbek formal va nazariy tilshunosligida evfemik, disfemik ma’noli vositalarni o‘rganish dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo‘yilmagan. Bugungi kunda nutqiy strukturani ilmiy tadqiq qilish muammosi doirasida mazkur vositalarni ham tadqiq qilish dolzarb masaladir.

Lisoniy hodisalarni ilmiy o‘rganish zamon bilan hamqadam rivojlanadi. Shunga muvofiq ravishda, har bir davrda o‘rganish ob’ektining yangidan-yangi qirralari namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘tgan asrning o‘rtalarida o‘zbek tilshunosligida evfemik birliklarning mohiyati asosan tabu hodisasi bilan bog‘lab o‘rganilgan bo‘lsa, bugungi kunda ular nafaqat qo‘llanishi ijtimoiy taqiqlangan til birliklari o‘rnida ishlatiluvchi vositalar sifatida, balki uslubiy bo‘yoq, nutqiy bezamalilik, fikrni nozik bayon etish, qolaversa, sharqona madaniyatga xos hurmat (ismini aynan aytmaslik) maqsadida qo‘llanuvchi, so‘zlovchining manipulyativ taktikasini ta’minlovchi kabi vositalar sifatida ham qaralmoqdaki, bu ilmiy tadqiqotlar evfemizmlarning mohiyati sari yanada chuqurlashayotganligidan dalolat beradi.

Tog‘ay Murod mohir so‘z san’atkori sifatida o‘z ijodida til va ma’naviyat, madaniyat mushtarakligining uyg‘un holdagi ko‘rinishlarini namoyon qilib, o‘zbek ma’naviyati, milliy ibo, nazokat va andishani go‘zal va dilbar tilimizda ifoda etish mahoratini namoyish etdi.

Adib asarlarida evfemik vositalar rang-barang ko‘rinishlarga ega. Ularni ma’lum bir muhim belgilar asosida turli tomondan tasniflash – adib mahoratini ochishning ibtidosi. Tog‘ay Murod asarlarida qo‘llangan evfemik vositalarning mavzuviy rang-barangligi, semantik ko‘lamdorligi, shakliy xilma-xilligi tasnif jarayonida muayyanlashdi.

Tog‘ay Murod evfemik vositalarni o‘z o‘rnida mohirlik bilan qo‘llab, har bir hodisa, shaxs, voqelik va unga o‘z munosabati tasvirida go‘zal evfemik vositalar tanlaydi, mavjud barqaror birikmalarga ham evfemik tus beradi. Natijada voqea-hodisalar, shaxsning ichki va tashqi qiyofasi hamda adibning ularga badiiy-estetik munosabati ta’sirli ifodalanadi. Tog‘ay Murodning asarlarini ko‘zdan kechirar ekanmiz, ijodkorning novatorligiga guvoh bo‘lamiz. Har qanday yoqimli narsa, yoqimli so‘z odamga yoqadi, kayfiyat bag‘ishlaydi. Lekin aksi bo‘lsa-chi? Odatda har qanday odamga qabriston, mozoriston, go‘riston degan so‘zlar xush kelavermaydi. Bu joyni evfemik ifodalash ana shunday sovuq tushunchani anchayin yumshatadi. Ijodkor asarda qabriston so‘zini qo‘llashdan chekinib, uni marhumlar shahri tarzida matnga olib kiradi:

Botir firqa marhumlar shahri aro ravona bo‘ldi. «Bilaman, keladigan joyim, bilaman, — dedi. — Ammo-lekin qanday qilib kelaman?» Botir firqa marhumlar shahrini sayr etdi. Shahar yo‘laklari bo‘ylab sayr etdi. Marhumlar shahri obod ham sarishta bo‘ldi. Marhumlar shahri xushhavo ham xushmanzara bo‘ldi. U shaharni sayr etdi-yetdi — qaytib ketmoqchi bo‘ldi.

Yozuvchining badiiy mahorati, salohiyati har nafasda sezilib turadi. So‘z qo‘llashdagi mahorat individuallikni belgilaydi. Badiiy asar qaysi voqeani yoritmasin, ijobiy mazmundagi voqeami, salbiy ma’nodagi voqeyami, kitobxonga estetik zavq berishi kerak.

Tog‘ay Murod asarda ersiz ayol, eri yo‘q ayol, yolg‘iz ayol tushunchalarini matnda ifodalash uchun boshi ochiq iborasini evfemik qo‘llaydi. Boshi ochiq iborasini qahramonning nutqida qo‘llab, uning ma’naviy dunyosi juda pok, tiniq ekanligini kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalantira olgan.

Afsuski, boy rasm-rusumlarimiz, urf-odatlarimizni chuqur bilmaymiz. O‘zbek oilasida ayol o‘z yostiqdoshini, umr yo‘ldoshini erim deb aytishni ma’qul topmaydi. Mazkur asar kitobxonni milliy ruhda tarbiyalashga ulkan hissa qo‘shadi. Shu o‘rinda quyidagi misolga e’tiborni qaratamiz. Dehqonqulning ayoli turmush azoblaridan charchaydi. Ko‘z ochib ko‘rgani dala va uy. Oxir-oqibat bunday azoblardan qutulish uchun o‘ziga o‘t qo‘yadi. Uni shifoxonaga olib borishadi:

...Qabulxonada pichir-pichir boshlandi. — Erkagi ekan, sho‘rpeshonani erkagi ekan. — Hay, bechora-ye, bechora. — E, tavba-ye, tumanda bir oyda to‘rtta shunday ko‘rgilik bo‘ldi-a? (Otamdan qolgan dalala).

Shu joyida yana bir misolga e’tibor beramiz. Bu gap yuqoridagi misolni yana bir bor tasdiqlaydi:

— Dardimni aytayin deyman, chappa burilib yotib oladi… — Nima darding bor, ayta ber. — O‘-o‘y, ayollar Xo‘jai Obigarmga tomoshaga borayapti ekan. — Ha-a. — Bari erkagi bilan borayapti ekan. — Ha-a. — Xo‘janov muallim ayoli bilan bosh bo‘lyapti ekan. — Ha-a. — Bir hafta yotib kelar ekan. — Bir hafta? Paxta nima bo‘ladi? Ayolimiz aytib-aytib yig‘ladi: — Shunday deyishini bilib edim (Otamdan qolga dalalar).

Yana shuni aytib o‘tish joizki, O‘zbek xalqi olqishlardan va nutqiy muloqotda juda unumli foydalanadi: hormang, charchamang, baraka toping, ishingizga baraka, yo‘lingiz bexatar bo‘lsin, yo‘lingiz unsin kabi. “Yaxshi niyat-yarim mol” deganlaridek, olqishlar kishi ruhiyatiga ijobiy ta’sir qiladi. Buni quydagi parchada ham ko‘rishimiz mumkin.

Akamiz oxirgi gapirgan Yo‘ldosh traktorchini atayin yonlab o‘tdi.-Yo‘lingiz unsin, Qoplon aka! (Oydinda yurgan odamlar,129-b).

Shuningdek, evfemik qo‘llangan qarg‘ishlar jonli xalq tilidan shunchalar mustahkam o‘rin olganki, real hayotni bu kabi qarg‘ishlarsiz tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun ham Tog‘ay Murodning asarlari tili nihoyatda sodda, tushunarli, shirali, balandparvoz o‘xshatishlardan holi.

— Baqirmang-ye, ena... — dedim. — Baqiraman! — shang‘illadi onamiz. — O‘lib ketsang, bola-baqrangni kim boqadi?! — Uf-f, ena... — Ha, fotihangga borayin, sendaychikin Matrosovni, fotihaginangga borayin! — Ha endi, paxta uchun-da, Bolxin momo, paxta uchun, — dedi raisimiz (Otamdan qolgan dalalar, 92-b)

Yuqorida ta’kidlanganidek, subyekt tomonidan obyektga qarg‘ish yo‘llanar ekan, albatta, uning javobi ham bo‘ladi. Juvonmarg so‘zi fors-tojikcha bo‘lib, yosh o‘lgan, avji yetilgan paytida halok, nobud bo‘lgan kabi ma’nolarni anglatadi.

Mening yoshimga yetolmayin juvonmarg bo‘lgin, Alloh Akbar dedi. Iloyo, og‘zingdan chiqib, yoqangga yopishsin, dedi Barchin xola (Oydinda yurgan odamlar, 296-b).

Shunday kunlarning birida qarindoshi Qimmat xolaning qarg‘ishi Oymomoning ko‘ngliga juda og‘ir botdi...:

-Mendayin bir begunoh momoni sochimning oqiga qaramay urgan bo‘lsang, iloyo, olamdan bepusht o‘tgin! (Oydinda yurgan odamlar, 97-b).

Garchi momo tomonidan to‘g‘ridan – to‘g‘ri farzanding bo‘lmasin, bolang bo‘lmasin deyilmasa-da, bepusht o‘tgin deya qarg‘ashi farzand dog‘ida yonayotgan ayol uchun qanchalar dahshat ekanligini so‘z bilan ifodalash qanchalar og‘ir. Aytish mumkinki, davrlar o‘tishi bilan evfemik ifodalangan tushunchalar ham odamga juda og‘ir botishi mumkin ekan.

Ahamiyatlisi shundaki, bunday olqishlardan kishi qandaydir kuch, ilhom, kayfiyat oladi, endi unga ishning og‘irligi ham, yo‘lning uzoqligi ham vahima emas.

Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, qadimgi xalqlar, xususan, tog‘ xalqlari nutqida qarg‘ish vositalari nisbatan ko‘proq, hozirgi adabiy tilda so‘zlashuvchilar nutqida qisman saqlanib qolgan. Bu qarg‘ish vositalari, uning evfemikasi tarixiy-etnografik hodisa sifatida Etnolingvistika, Sotsiolingvistika fanlari tomonidan maxsus o‘rganilishi kerakligidan dalolat beradi.

Boshqacha aytganda, har bir qarg‘ish yoki olqish vositasi muayyan udum, rasm- rusum bilan bog‘liq paydo bo‘lganligidan, ularning ko‘pchiligi bugungi til egalari uchun tushunarli emas yoki g‘ayritabiiy bo‘lib tuyuladi.

Evfemizm tabu so‘zlar hamda aytilishi noqulay bo‘lgan tushunchalar nomini yumshatib ifodalash ehtiyoji tufayli vujudga kelgan. Demak, evfemizmning paydo bo‘lishi bir qator pragmatik omillarga bog‘liq hodisa. So‘zlovchi evfemizmdan foydalanishining asosiy stimuli – xushxulqlik.

Evfemizmlarni tadqiq etish xalqning mentalitetiga chuqur kirib borish, uning milliy madaniyati, qadriyatlari, urf-odatlari, axloqiy me’yorlari, til sohibining milliy xarakteri haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish imkoniyatini beradi. Muloqot jarayonida yuzaga chiqadigan tushunmovchiliklarni, qiyinchiliklarni oldini oladi, pragmatik to‘siqlarni bartaraf etib, muloqotning muvaffaqiyatli va samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Badiiy matnning til xususiyatlari tekshirilayotganida undagi har bir hodisaga makon va zamon birligi tushunchasini hisobga olib yondashish kerak. Yozuvchi o‘z qahramonlarini o‘zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so‘zlarni ishlatadi. Tog‘ay

Murodning jonli xalq tilini chuqur bilishi uning urf-odatlarimiz bilan bog‘liq evfemik birliklarni badiiy matnga mohirlik bilan olib kirishiga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Rahimov S. Surxondaryo o‘zbek shevalari lug‘ati. -T.: 1995. Z-8-b.
2. Omonturdiev A. O‘zbek nutqining evfemik asoslari. -T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2000. 128-6.
3. Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari. –Toshkent. Fan, 1962. 202-205-b.
4. R. Sayfullayeva. B. Mengliyev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2009-yil
5. Tog‘ay Murod. Tanlangan asarlar
6. Sharipov, F. G. (2021). Attitude to the plural affix in Uzbek language. Scientific reports of Bukhara State University, 5(1), 50-64.
7. Mahkamov, N., & Ermatov, I. (2013). TILSHUNOSLIK TERMINLARINING IZOHLI LUG ATI. Toshkent: Fan Nashriyoti.
8. Khamrokulovna, T. Z. (2022). ON THE MORPHOLOGICAL.

Reviewer:
F. G. Sharipov
DSc, Professor
Gulistan State University

AUTHOR(S):

Author – Maftuna Abduvoitova, maftuna_abduvoitova@gmail.com
Corresponding author – Maftuna Abduvoitova, maftuna_abduvoitova@gmail.com